



## DIN VA HURFIKIRLILIK TUSHUNCHASINING MAZMUNI VA MOHIYATI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19446715>

Termiz davlat universiteti,  
Falsafa kafedrası o'qituvchisi  
**Jo'rayev Akrom. N**  
O'zbek filologiyasi fakulteti,  
filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili) yo'nalishi  
1- bosqich talabasi **A'zamova Sojida Panjiyevna**  
[azamovasojida30@gmail.com](mailto:azamovasojida30@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada din va hurfikrlilik tushunchalarining mazmuni, mohiyati hamda ularning o'zaro aloqadorligi ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Din insoniyat tarixida qadimdan mavjud bo'lib, u insonning ma'naviy ehtiyojlarini qondiruvchi, axloqiy qadriyatlarni shakllantiruvchi hamda jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlovchi muhim ijtimoiy institut sifatida qaraladi. Maqolada dinning e'tiqodiy, axloqiy va madaniy funksiyalari yoritilib, uning inson tafakkuri va jamiyat rivojidadagi o'rni keng tahlil etiladi. Shuningdek, hurfikrlilik tushunchasi inson tafakkurining erkinligi, mustaqil fikrlash, tanqidiy yondashuv va turli qarashlarga ochiqlik sifatida izohlanadi. Maqolada hurfikrlilikning ilm-fan, falsafa va madaniyat taraqqiyotidagi ahamiyati alohida ko'rsatib beriladi. Hurfikrlilikning asosiy xususiyatlari sifatida mantiqiy tahlil, dalillarga asoslangan fikrlash, stereotiplardan voz kechish va yangilikka intilish kabi jihatlar yoritiladi. Maqolada din va hurfikrlilik o'rtasidagi munosabatlar tarixiy kontekstda tahlil qilinib, ularning ayrim davrlarda qarama-qarshi, ayrim davrlarda esa uyg'un holda rivojlanganligi ko'rsatib o'tiladi. Shu bilan birga, mazkur tushunchalar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik ochib berilib, ularning aslida bir-birini inkor etmasligi, balki to'ldiruvchi va rivojlantiruvchi omillar ekanligi asoslab beriladi. Din insonni ma'naviy kamolotga yetaklasa, hurfikrlilik ushbu jarayonda ongli va tanqidiy yondashuvni ta'minlashi ta'kidlanadi. Zamonaviy jamiyat sharoitida din va hurfikrlilik o'rtasidagi muvozanatni saqlash dolzarb masala sifatida ko'rib chiqiladi. Globallashuv jarayonlari, madaniyatlararo muloqotning kuchayishi hamda axborot oqimining keskin ortishi insondan mustaqil fikrlash va turli qarashlarni tahlil qilish qobiliyatini talab etadi. Shu nuqtai nazardan hurfikrlilik jamiyat taraqqiyotining muhim omili sifatida baholanadi. Maqolada, shuningdek, hurfikrlilikning noto'g'ri talqin qilinishi natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolar ham ko'rib chiqiladi. Mutlaq erkinlik g'oyasi ayrim hollarda ijtimoiy tartib va axloqiy me'yorlarga putur yetkazishi mumkinligi ta'kidlanadi. Shu



*sababli hurfikrlilik ma'lum ijtimoiy, huquqiy va axloqiy chegaralar doirasida amalga oshirilishi zarurligi asoslanadi.*

**Kalit so'zlar:** *din, hurfikrlilik, e'tiqod, tafakkur erkinligi, ma'naviyat, axloqiy qadriyatlar, bag'rikenglik, tanqidiy fikrlash, ijtimoiy institut, dunyoqarash, globallashuv, madaniyatlararo muloqot, ta'lim tizimi, ma'naviy kamolot, ijtimoiy barqarorlik.*

## “THE CONTENT AND ESSENCE OF THE CONCEPTS OF RELIGION AND FREE THOUGHT”

**Abstract:** *This article analyzes the content, essence, and interrelationship of the concepts of religion and free thought from a scientific and theoretical perspective. Religion has existed since ancient times and is interpreted as an important social institution that satisfies human spiritual needs, shapes moral values, and ensures social stability in society. The article highlights the doctrinal, ethical, and cultural functions of religion and provides a comprehensive analysis of its role in human cognition and social development. In addition, the concept of free thought is explained as intellectual freedom, independent thinking, critical approach, and openness to diverse perspectives. The article emphasizes the importance of free thought in the development of science, philosophy, and culture. The main characteristics of free thought, such as logical analysis, evidence-based reasoning, rejection of stereotypes, and aspiration for innovation, are also discussed. The relationship between religion and free thought is examined in a historical context, showing that at certain periods they developed in opposition, while at other times they evolved in harmony. Furthermore, the interconnection between these concepts is revealed, proving that they do not negate each other but rather act as complementary and mutually reinforcing factors. While religion guides individuals toward spiritual maturity, free thought ensures a conscious and critical approach in this process.*

*In the context of modern society, maintaining a balance between religion and free thought is considered a pressing issue. The processes of globalization, the intensification of intercultural communication, and the rapid growth of information flows require individuals to possess the ability to think independently and critically analyze various viewpoints. From this perspective, free thought is evaluated as an essential factor in social development. The article also examines potential problems arising from the misinterpretation of free thought. It is noted that the idea of absolute freedom may, in some cases, undermine social order and moral norms. Therefore, it is argued that free thought should be exercised within certain social, legal, and ethical boundaries.*

**Keywords:** *religion, free thought, belief, freedom of thinking, spirituality, moral values, tolerance, critical thinking, social institution, worldview, globalization, intercultural communication, education system, spiritual development, social stability.*



## KIRISH

Insoniyat tarixida din va hurfikrlilik tushunchalari har doim muhim o'rin egallab kelgan ijtimoiy-falsafiy kategoriyalar qatoriga kiradi. Ushbu ikki tushuncha insonning borliqni anglash jarayoni, uning ma'naviy ehtiyojlari va ijtimoiy munosabatlar tizimi bilan bevosita bog'liqdir. Din qadim zamonlardan boshlab insoniyatning dunyoqarashini shakllantirgan, uning axloqiy me'yorlarini belgilagan va jamiyat hayotining turli jabhalariga sezilarli ta'sir ko'rsatgan murakkab ijtimoiy hodisa sifatida namoyon bo'ladi. Hurfikrlilik esa inson tafakkurining erkinligi, mustaqil fikrlash qobiliyati va mavjud qarashlarga tanqidiy yondashish imkoniyatini ifodalovchi muhim konsept sifatida e'tirof etiladi.

Zamonaviy ilmiy tafakkurda din faqatgina e'tiqod tizimi sifatida emas, balki ijtimoiy institut, madaniy fenomen va tarixiy jarayon sifatida ham keng o'rganilmoqda. Bu esa dinning mazmun-mohiyatini yanada chuqurroq anglashga imkon beradi. Din insonning borliq, hayot mazmuni, yaxshilik va yomonlik, adolat va haqiqat haqidagi savollariga javob izlash jarayonida shakllangan murakkab qarashlar tizimidir<sup>8</sup>. Shu bilan birga, din jamiyatda muayyan tartib-qoidalarini o'rnatish, insonlar o'rtasida ijtimoiy birdamlikni ta'minlash va axloqiy qadriyatlarni mustahkamlash vazifasini ham bajaradi.

Hurfikrlilik tushunchasi esa ko'proq yangi davr falsafasi va ma'rifatparvarlik g'oyalari bilan bog'liq holda shakllangan bo'lib, u insonning mustaqil fikrlash huquqi va imkoniyatini anglatadi. Hurfikrlilik insonning har qanday g'oyani, jumladan diniy qarashlarni ham tanqidiy tahlil qilish, ularni ongli ravishda qabul qilish yoki rad etish huquqini bildiradi<sup>9</sup>. Bu tushuncha ayniqsa ilm-fan rivoji, ijtimoiy taraqqiyot va demokratik jamiyat qurish jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Tarixiy jihatdan qaralganda, din va hurfikrlilik o'rtasidagi munosabatlar murakkab va ko'p qirrali bo'lgan. Ayrim davrlarda diniy qarashlar hukmron bo'lib, hurfikrlilik cheklangan bo'lsa, boshqa davrlarda esa erkin fikrlashning rivojlanishi diniy qarashlarga yangicha yondashuvni yuzaga keltirgan. Masalan, Yevropada Uyg'onish davri va Ma'rifatparvarlik davrida hurfikrlilikning rivojlanishi ilm-fan taraqqiyotiga kuchli turtki bergan<sup>10</sup>. Bu jarayonda inson aqli va tajribasi asosiy bilim manbai sifatida e'tirof etilgan. Bugungi kunda globallasuv sharoitida din va hurfikrlilik tushunchalarining ahamiyati yanada ortib bormoqda. Turli madaniyatlar, dinlar va g'oyalar o'rtasidagi o'zaro ta'sir kuchayib borayotgan bir paytda, insonlardan nafaqat o'z e'tiqodiga sodiq bo'lish, balki boshqa qarashlarga ham hurmat bilan yondashish talab etiladi. Bu esa hurfikrlilikning muhim jihatlaridan biri

<sup>8</sup> Smart, N. *The World's Religions*. Cambridge University Press, 1998.

<sup>9</sup> Russell, B. *Why I Am Not a Christian*. Routledge, 1927.

<sup>10</sup> Outram, D. *The Enlightenment*. Cambridge University Press, 2013.



bo'lgan bag'rikenglik tamoyilini ilgari suradi. Shu bilan birga, dinning zamonaviy jamiyatdagi o'rni ham o'zgarib bormoqda. Bir tomondan, din insonning ma'naviy ehtiyojlarini qondiruvchi asosiy omillardan biri bo'lib qolmoqda. Ikkinchi tomondan esa, ilmfan va texnologiyaning rivojlanishi natijasida dunyoqarashning sekulyar shakllari ham keng tarqalmoqda. Bu esa din va hurfikrlilik o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni yanada murakkablashtiradi.

Mazkur maqolaning dolzarbligi shundan iboratki, hozirgi davrda din va hurfikrlilik o'rtasidagi muvozanatni saqlash masalasi nafaqat ilmiy, balki ijtimoiy-siyosiy jihatdan ham muhim ahamiyatga ega. Jamiyatda turli qarashlarning mavjudligi tabiiy hol bo'lsa-da, ularning o'zaro to'qnashuvi ijtimoiy ziddiyatlarga olib kelishi mumkin. Shu sababli din va hurfikrlilik o'rtasidagi uyg'unlikni ta'minlash dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi ham alohida e'tiborga loyiqdir. Dinshunoslik, falsafa, sotsiologiya va madaniyatshunoslik sohalarida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar din va hurfikrlilik tushunchalarining turli jihatlarini yoritib bergan. Xususan, G'arb va Sharq mutafakkirlarining asarlarida bu masalaga turlicha yondashuvlar mavjud. Ba'zi olimlar dinni jamiyat barqarorligini ta'minlovchi asosiy omil sifatida baholagan bo'lsa, boshqalari hurfikrlilikni taraqqiyotning asosiy sharti sifatida

ko'rsatgan<sup>11</sup>. Shu nuqtai nazardan, mazkur maqolada din va hurfikrlilik tushunchalarining mazmuni va mohiyati, ularning o'zaro aloqadorligi hamda zamonaviy jamiyatdagi o'rni kompleks tarzda tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida ushbu tushunchalarning tarixiy rivojlanishi, falsafiy talqinlari va ijtimoiy funksiyalari o'rganiladi.

Bundan tashqari, maqolada din va hurfikrlilik o'rtasidagi ziddiyatli va uyg'un jihatlar ham ko'rib chiqiladi. Bu esa ushbu tushunchalarni chuqurroq anglash va ularning jamiyat taraqqiyotidagi o'rnini to'g'ri baholash imkonini beradi. Ayniqsa, yosh avlodni tarbiyalash jarayonida bu masalaning ahamiyati nihoyatda katta. Chunki bugungi kunda yoshlar turli axborot oqimlari ta'sirida shakllanayotgan bir paytda, ularning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish va ma'naviy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash zarur. Shuningdek, maqolada ta'lim tizimining ushbu jarayondagi o'rni ham alohida ta'kidlanadi. Ta'lim orqali insonda hurfikrlilik ko'nikmalarini shakllantirish, uni tanqidiy fikrlashga o'rgatish va shu bilan birga, milliy va diniy qadriyatlarga hurmat ruhini singdirish mumkin. Bu esa jamiyatda sog'lom ma'naviy muhitni shakllantirishga xizmat qiladi. Umuman olganda, din va hurfikrlilik tushunchalarini o'rganish nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ham ega. Chunki bu masala jamiyatda tinchlik va

<sup>11</sup> Durkheim, E. *The Elementary Forms of Religious Life*. Free Press, 1912.



barqarorlikni ta'minlash, insonlar o'rtasida o'zaro hurmat va bag'rikenglikni shakllantirish bilan bevosita bog'liqdir. Shu sababli ushbu mavzuni chuqur o'rganish va ilmiy asosda tahlil qilish bugungi kunning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Din – xudo yoki xudolar, g'ayritabiiy kuchlar mavjudligiga ishonish. Din muayyan ta'limotlar, his-tuyg'ular, toat-ibodatlar va diniy tashkilotlarning faoliyatlari orqali namoyon bo'ladigan, olam, hayot yaratilishini tasavvur qilishning alohida tarzi, uni idrok etishning o'ziga xos usuli. Dinning paydo bo'lishi haqida yagona fikr yo'q. Islom dini ta'limotiga ko'ra, din – Alloh tomonidan o'z Payg'ambari orqali bashariyat olamiga joriy etilajagi zarur bo'lgan ilohiy qonunlardir. Tabiat va insonni yaratgan, ayni vaqtda insonga to'g'ri, haqiqiy hayot yo'lini ko'rsatadigan va o'rgatadigan ilohiy qudratga ishonchni ifoda etadigan ta'limotdir.

Din dunyo, inson, mavjudotlarning kelib chiqishi, insonning yashashdan maqsadi kabi savollarga o'zicha javob beradi. Dunyoviy ilm nuqtai nazaridan din kishilik jamiyati tarixiy taraqqiyotining ma'lum bosqichida paydo bo'lgan ijtimoiy ong shakllaridan biri. Bu dunyoqarash jamiyatning ma'lum tarixiy davr va sharoitlaridagi talablari, ehtiyojlari asosida shakllanadi. Ulug' mutafakkir Abu Nasr Forobiy dinga falsafa bilan bir qatorda haqiqatga yetishishning 2 mustaqil usulidan biri sifatida qaragan.

Forobiyning fikricha, falsafadagi masalalar isbotini payg'ambarlar ramzlar shaklida bayon qilganlar. Dinga turlicha yondoshishni Beruniy, Ibn Sino, Umar Xayyomning ijtimoiy-falsafiy qarashlarida, Ibn Rushdning ikki haqiqat nazariyasida kuzatish mumkin. 18-asr fransuz faylasuflarining dinga bo'lgan o'ziga xos yondashuvlari, 19-asrda mifologik maktab (aka-uka Ya. Grim va V. Grim, M. Myuller), antropologik maktab (L. Feyerbax) va boshqa turli yo'nalishlar paydo bo'lgan bo'lsa, 20-asrda dinni tadqiq qilish yuzasidan yana boshqacha qarash va nazariyalar (K. Yung, E. Dyurkxeym) vujudga keldi. Din insonning ishonchli hamrohi, odamzot hayotining bir qismi bo'lib kelgan. Unga turli davrda turlicha munosabatda bo'lingan. Dinni jamiyatning hukmron kuchlari davlat siyosati darajasiga ko'targan yoki din hamda dindorlarni ayovsiz ta'qib ostiga olgan hollar tarixda ko'p uchraydi. Yaqin o'tmishda – sho'rolar davrida dinni kamsitish va unga qarshi kurash siyosati olib borildi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, din madaniy-ma'naviy omillar umumiy silsilasiga kiruvchi teng huquqli qadriyat sifatida tan olindi va dinga to'la erkinlik berildi. Diniy jamoalar, tashkilotlarga qonun doirasida ochiq va daxlsiz faoliyat ko'rsatish imkoniyati yaratildi. O'zbekiston aholisining asosiy qismi islom diniga, yevropalik aholi xristianlikning pravoslaviye mazhabiga e'tiqod qiladi. Ular bilan bir qatorda katolik, protestant, boshqa mazhab (jami



15 dan ortiq konfessiya) vakillari yashaydi. Ular vatan mustaqilligini mustahkamlash, siyosiyijtimoiy barqarorlikni ta'minlash yo'lida faoliyat yuritmoqdalar. O'zbekiston dunyoviy davlat bo'lib, din davlatdan ajratilgan. Vijdon erkinligining kafolatlari O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida, „Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida“gi qonun (O'zbekiston respublikasi Konstitutsiyasi 31-moddasida bayon etilgan. O'zbekistonda din va diniy dunyoqarash dunyoviy turmush tarzi, dunyoviy fikr bilan yonma-yon rivojlanib kelmoqda<sup>12</sup>.

Xulosa: Din va hurfikrlilik tushunchalarining mazmuni va mohiyatini chuqur o'rganish shuni ko'rsatadiki, ushbu ikki fenomen insoniyat tafakkuri va jamiyat taraqqiyotida muhim o'rin tutadi. Ular ko'pincha qarama-qarshi qo'yilsa-da, aslida o'zaro bog'liq va bir-birini to'ldiruvchi tushunchalardir. Insonning ma'naviy kamoloti va intellektual rivoji aynan shu ikki omilning uyg'unlashuvi orqali shakllanadi<sup>13</sup>. Din insoniyat tarixida qadimdan mavjud bo'lib, u insonning ichki dunyosini boyituvchi, hayotiga ma'no beruvchi hamda jamiyatda axloqiy me'yorlarni shakllantiruvchi kuch sifatida namoyon bo'ladi. Diniy e'tiqod insonni ezgulik, adolat va halollik kabi qadriyatlarga amal qilishga undaydi. Shu jihatdan din

ijtimoiy tartib va barqarorlikni ta'minlovchi muhim institut hisoblanadi.

Biroq, tarixiy tajriba shuni ko'rsatadiki, diniy qarashlarning noto'g'ri talqini yoki ulardan noto'g'ri foydalanish jamiyatda ziddiyatlarga sabab bo'lishi mumkin. Shu bois dinni chuqur o'rganish, uning asl mohiyatini anglash va zamonaviy sharoitda to'g'ri talqin qilish zarur. Hurfikrlilik esa inson tafakkurining erkinligi va mustaqilligini ifodalovchi muhim omildir. U insonni mavjud qarashlarni tanqidiy tahlil qilishga, dalillarga asoslangan holda fikr yuritishga va o'z nuqtai nazarini shakllantirishga undaydi<sup>14</sup>. Hurfikrlilik ilm-fan rivoji va ijtimoiy taraqqiyotning asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

Din va hurfikrlilik o'rtasidagi munosabatlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, ular bir-birini inkor etmaydi, balki to'ldiradi. Din insonning ma'naviy ehtiyojlarini qondirsa, hurfikrlilik uning ongli va mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. Shu sababli ushbu ikki tushuncha o'rtasidagi muvozanatni saqlash muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy jamiyatda globallashtirish jarayonlari natijasida turli madaniyatlar va diniy qarashlar o'rtasidagi aloqalar kengayib bormoqda. Bu esa insonlardan bag'rikenglik, tolerantlik va o'zaro hurmat kabi qadriyatlarga amal qilishni talab etadi<sup>15</sup>. Hurfikrlilik ushbu jarayonda insonlarga turli qarashlarni tahlil qilish va to'g'ri xulosa chiqarish imkonini beradi.

<sup>12</sup> James, Paul; Mandaville, Peter. *Globalization and Culture*, Vol. 2: Globalizing Religions. London: Sage Publications, 2010.

<sup>13</sup> Berger, P. *The Sacred Canopy*. Anchor Books, 1967.

<sup>14</sup> Russell, B. *Why I Am Not a Christian*. Routledge, 1927.

<sup>15</sup> Giddens, A. *Sociology*. Polity Press, 2009.



Shu bilan birga, hurfikrlilikning noto'g'ri talqini ham muammolarga olib kelishi mumkin. Mutlaq erkinlik g'oyasi ayrim hollarda ijtimoiy tartibning buzilishiga sabab bo'ladi. Shu bois hurfikrlilik ma'lum axloqiy va huquqiy me'yorlar doirasida amalga oshirilishi lozim. Din esa ushbu jarayonda insonning ma'naviy tayanchiga aylanadi. U insonni zararli g'oyalardan himoya qiladi, hayotiga ma'no bag'ishlaydi va uni ma'naviy kamolot sari yetaklaydi. Shu jihatdan din va hurfikrlilik o'rtasidagi uyg'unlik insonning har tomonlama rivojlanishida muhim rol o'ynaydi.

Ta'lim tizimi ushbu ikki tushunchaning uyg'unligini ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Ta'lim orqali insonda mustaqil fikrlash, tanqidiy yondashuv va mantiqiy tahlil qilish ko'nikmalari shakllantiriladi. Shu bilan birga, ma'naviy qadriyatlar va diniy merosni o'rgatish ham muhimdir. Yoshlar tarbiyasida din va hurfikrlilik o'rtasidagi muvozanatni saqlash ayniqsa dolzarbdir. Chunki yosh avlod jamiyatning kelajagini belgilaydi. Ularning dunyoqarashi va qadriyatlari jamiyat taraqqiyotiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, zamonaviy axborot makonida turli g'oyalar tez tarqalmoqda.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Smart, N. *The World's Religions*. Cambridge University Press, 1998.
2. Durkheim, E. *The Elementary Forms of Religious Life*. Free Press, 1912.
3. Weber, M. *The Sociology of Religion*. Beacon Press, 1963.
4. Russell, B. *Why I Am Not a Christian*. Routledge, 1927.
5. Outram, D. *The Enlightenment*. Cambridge University Press, 2013.
6. Hick, J. *Philosophy of Religion*. Prentice Hall, 1990.
7. Berger, P. *The Sacred Canopy*. Anchor Books, 1967.
8. Armstrong, K. *A History of God*. Ballantine Books, 1993.
9. Giddens, A. *Sociology*. Polity Press, 2009.
10. Fromm, E. *Psychoanalysis and Religion*. Yale University Press, 1950.